

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 17,0 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish kelgusida ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko‘rsatayotgan

korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 2024-yil 1-yanvar holatiga



Savdo-7 569



**Boshqa turdagi
xizmatlar- 6 196**



**Yashash va ovqatlanish
bo‘yicha xizmatlar
1 348**



Tashish va saqlash-988




Sog‘liqni saqlash- 487



Axborot va aloqa- 476

2024-yilning 1-yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlarning ulushi, % da (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2024-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar 44,4 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,8 % ni tashkil etmoqda.


Sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,8 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,8 % ga teng bo‘ldi.

2023-yilning yanvar-dekabrida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 12 876,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘shish 110,8 foizni tashkil etdi, shu jumladan qishloq joylarida 2 601,1 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 20,2 foizini tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, transport xizmatlari (24,6 %), moliyaviy xizmatlar (23,0 %), savdo xizmatlari (21,1 %), ta‘lim sohasidagi xizmatlar (6,2 %) va boshqa xizmatlar (25,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan
xizmatlar tarkibi, % da**



**Yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘sish sur‘ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>		

Jami xizmatlar	8 069	12 876,6	10 595,3	110,8	100,0
-----------------------	--------------	-----------------	-----------------	--------------	--------------

*shu jumladan xizmat
turlari bo‘yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	148	688,2	555,7	122,5	5,3
--	-----	-------	-------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar	81	2 961,6	2 232,0	121,4	23,0
---------------------	----	---------	---------	-------	------

transport xizmati	721	3 170,3	2 867,0	102,5	24,6
-------------------	-----	---------	---------	-------	------

shu jumladan:

avtotransport xizmatlari	559	1 559,0	1 275,4	107,5	12,1
-----------------------------	-----	---------	---------	-------	------

yashash va ovqatlanish xizmatlari	738	365,6	277,6	107,3	2,8
--------------------------------------	-----	-------	-------	-------	-----

savdo xizmatlari	4494	2 710,8	2 177,7	113,3	21,1
------------------	------	---------	---------	-------	------

ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	236	283,4	245,6	106,4	2,2
---	-----	-------	-------	-------	-----


davomi

	<i>faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘sinh sur‘ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2023 y.</i>	<i>2022 y.</i>		
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	224	801,6	694,2	100,5	6,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	273	161,8	127,9	120,6	1,3
ijara xizmatlari	54	246,7	204,5	111,1	1,9
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	99	371,3	301,5	105,0	2,9
boshqa shaxsiy xizmatlar	104	499,5	387,8	107,9	3,9
memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115	183,8	165,7	102,2	1,4
boshqa turdagi xizmatlar	782	432,0	358,1	111,0	3,4

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 24,6 foizi) va moliyaviy (23,0 foizi) xizmatlarga to‘g‘ri keldi.


Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmati (122,5 foiz), moliyaviy xizmatlar (121,4 foiz), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,6 foiz) o‘sinh sur‘ati yuqori bo‘ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi, (2023-yil yanvar–dekabr, jamiga nisbatan % da)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 21,1 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

2023-yil yanvar-dekabr oylari da savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2023-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

Transport xizmatlari

3 170,3 mlrd. so‘m



Moliyaviy xizmatlar

2 961,6 mlrd. so‘m

Savdo xizmatlari

2 710,8 mlrd. so‘m




Boshqa xizmatlar

1 024,3 mlrd. so‘m

Ta‘lim sohasi xizmatlari

801,6 mlrd. so‘m




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

688,2 mlrd. so‘m

Shaxsiy xizmatlar

499,5 mlrd. so‘m



Kompyuterlarni ta‘mirlash bo‘yicha

371,3 mlrd. so‘m

Yashash va ovqatlanish
xizmatlari

365,6 mlrd. so‘m




Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar

283,4 mlrd. so‘m

Joriy yil yanvar-dekabr oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo‘lib, 3 170,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan, (2022-yilda 2 867,0 mlrd. so‘m) nisbatan 102,5 foizni tashkil etgan, shuningdek ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 2 961,6 mlrd. so‘m (2022-yilda 2 232,0 mlrd. so‘m), savdo xizmatlari 2 710,8 mlrd. so‘m (2022-yilda 2 177,7 mlrd. so‘m) va ta‘lim sohasidagi xizmatlar 801,6 mlrd. so‘m (2022-yilda 694,2 mlrd. so‘m) hissalariga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlari, %
(2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Shu bilan birga, eng yuqori o‘shish sur‘atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (22,5 %), moliyaviy xizmatlar (21,4 %) sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (20,6 %) va qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o‘shishiga imkoniyat yaratdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘shish sur‘ati 21,4 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 961,6 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, 2022-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati esa 121,4 % ni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



**2023-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
xizmatlar ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	12 876,6	110,8	6 472,6	109,3
Nukus sh.	5 523,1	110,1	16 394,0	108,4
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	665,5	111,6	3 164,3	109,7
Beruniy	642,1	111,5	3 161,4	109,4
Bo‘zatov	79,9	130,4	3 650,4	129,8
Qonliko‘l	177,8	112,1	3 329,6	110,6
Qorao‘zak	208,9	113,6	3 847,7	112,8
Kegeyli	241,5	113,2	3 241,7	112,3
Qo‘ng‘irot	1 838,5	107,1	13 588,0	105,8
Mo‘ynoq	147,3	111,5	4 397,8	110,5
Nukus t.	266,2	112,1	4 984,5	110,0
Taxiatosh	324,4	120,1	4 240,9	119,1
Taxtako‘pir	183,1	111,0	4 705,9	113,6
To‘rtko‘l	943,1	113,0	4 158,2	111,1
Xo‘jayli	552,1	112,2	4 313,1	110,8
Chimboy	376,7	111,2	3 264,8	110,3
Shumanay	171,6	114,3	2 969,8	113,3
Ellikqal‘a	534,8	111,5	3 156,8	109,4

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur‘ati Bo‘zatov tumani (130,4 %) ga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning ulushi Nukus shahri (42,9 foiz), Qo‘ng‘irot tumani (14,3 foiz), To‘rtko‘l tumani (7,4 foiz) va Amudaryo (5,2 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘sish sur‘atlari Qo‘ng‘irot tumanida (107,1 %), Nukus shahrida (110,1 %) kuzatildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 472,6 ming so‘mni tashkil qildi. O‘sish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkich hududlar o‘rtasida Nukus shahrida 16 394,0 ming so‘mdan Shumanay tumanida 2 969,8 ming so‘mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘shish sur‘ati (2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nukus shahrida 16 394,0 ming so‘mga teng bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o‘shishi Bo‘zatov (129,8 %), Taxiato‘sh (119,1 %), Taxtako‘pir (113,6 %), Shumanay (113,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi, Shumanay (2 969,8 ming so‘m), Ellikqal‘a (3 156,8 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

**2023-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nukus shahrida (715,0 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (307,1 mlrd. so‘m) va Amudaryo (234,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Bo‘zatov (17,6 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 710,8 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 113,3 % ni tashkil etdi.


2023-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarining o‘rish sur‘ati, % da



2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘rish sur‘ati Qo‘ng‘irot (144,4 %), Taxiatoosh (123,8 %) va Nukus shahrida (121,5 %) kuzatildi.

Eng kam o‘rish sur‘ati Xo‘jayli tumanida (100,0 %) qayd etildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Nukus shahri (26,4 %) va To‘rtko‘l (11,3 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Bo‘zatov (0,7 %), Mo‘ynoq (1,2 %) va Qonliko‘l (1,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 3 170,3 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 102,5 % ni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur‘ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qo‘ng‘irot tumanida (1 200,6 mlrd. so‘m) va Nukus shahrida (956,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (12,8 mlrd. so‘m) qayd etildi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Xizmat sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog‘idir. Xizmatlar iste‘molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Xizmatning o‘ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste‘mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, **bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar hisoblanadi.**

“Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi – ma‘lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi, iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste‘molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmagan bo‘lsa), xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mning belgilangan kursi bo‘yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo‘yicha aniqlanadi.

Elektron to‘lovlar – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish.

Elektron pullar – O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarni tasniflash, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o‘rinlarda MST deb ataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektron pochta, suniy yo‘ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma’lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini qamrab oladi.

Bozor xizmatlari hajmi MST bo‘yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo‘yicha shakllantiriladi.

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi. Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik yo‘li bilan olingan foizlar daromadi (ular uchun to‘lov miqdorida), shuningdek, moliya muassasasining kredit berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun yig‘im bilan hisobga olinadi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta‘minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va motosikllarni ta‘mirlash xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar aks ettiriladi.

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar, umumta‘lim, maktabgacha ta‘lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta‘lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo‘shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta‘lim olish va xohlagan kasbga o‘qishni qamrab oladi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko‘rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

Ijara xizmatlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o‘z ichiga oladi.